

BO‘LAJAK AGRONOMLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY PEDAGOGIK ZARURIYATI

Alijonova Maxbuba Rustamjonovna
AndQxi dotsenti, p.f.d (DSc)

Аннотация: Ushbu maqolada bo‘lajak mutaxassis agronomlarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslarini o‘rganish, uni sintez qilish, oliy ta‘lim muassasalarida integrativ yondashuvning mashg‘ulot jarayonida ijobiy samara berishi, pedagogik-metodik imkoniyatlarning amaliy tatbiq qilinishi, shu faoliyat jarayonida kasbiy bilim, amaliy ko‘nikma va nutqiy malakalarning takomillashuvi, integrativ yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassis agronomlarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish shaxsiy-kasbiy, kreativ sifatlar bayon qilingan.

Калит so‘zlar: Kasbiy kompetentlik, integrativ yondashuv, kasbiy tayyorgarlik, integratsion ta‘lim.

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ АГРОНОМОВ

Алижонова Махбуба Рустамжонова
доцент Андижанский сельскохозяйственный институт, д.ф.н. (DSc)

Аннотация: В данной статье исследуются теоретические основы развития профессиональной компетентности будущих специалистов-агрономов, ее синтез, положительное влияние интегративного подхода в процессе обучения в высших учебных заведениях, практическое применение педагогических и методических возможностей. Описаны профессиональные знания в процессе этой деятельности, совершенствование практических

навыков и речевых навыков, развитие профессиональной компетентности у будущих специалистов-агрономов на основе интегративного подхода, лично-профессиональных, творческих качеств.

***Ключевые слова:** Профессиональная компетентность, интегративный подход, профессиональная подготовка, интегрированное образование.*

SOCIAL AND PEDAGOGICAL NEED FOR DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE AGRONOMERS

***Alizhonova Makhbuba Rustamjonovna,**
associate professor of Andijan Institute of Agriculture, doctor (DSc)*

***Abstract:** This article examines the theoretical foundations for the development of professional competence of future agronomist specialists, its synthesis, the positive impact of the integrative approach in the learning process in higher educational institutions, the practical application of pedagogical and methodological capabilities. Professional knowledge in the process of this activity, improvement of practical skills and speech skills, development of professional competence of future agronomist specialists based on an integrative approach, personal, professional, and creative qualities are described.*

***Key words:** Professional competence, integrative approach, professional training, integrated education.*

Davlatimiz rahbarining farmon va qarorlariga binoan, 2020-yildan boshlab qishloq xo‘jaligiga bozor mexanizmlarini keng joriy etish, to‘liq raqamlashtirish, fermer va dehqonlar manfaatdorligini oshirish maqsadida paxta va g‘alla etishtirishga davlat buyurtmasini bekor qilish hamda bozor tamoyillari asosida xarid qilish tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish belgilab berildi. Bu borada Prezidentimiz tomonidan 2020-yil 28-yanvarda imzolangan “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi belgilangan vazifalarni 2020-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi

qarori dasturilamal bo‘ladi.

Yana bir muhim yo‘nalish — “Aqlli issiqxona” texnologiyasi bo‘yicha loyihalashtiriladigan ob‘ektlar soni 500 taga etkaziladi. Chorvachilikda esa mahsulotlar ishlab chiqarishning avtomatlashtirilgan tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Buning natijasida sohada ishlab chiqarish bilan bog‘liq xarajatlar 15 foiz qisqaradi.

Mamlakatimizda raqamli qishloq xo‘jaligiga o‘tish ishlari Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tashkiloti (FAO) va Jahon banki bilan hamkorlikda amalga oshirilyapti. Endilikda ekin erlari, yaylov va o‘rmon maydonlarini elektron tarzda monitoring qilish loyihasi, qishloq xo‘jaligini raqamlashtirishga o‘tishning fazalari va yo‘nalishlarini aniq belgilash bo‘yicha texnik-iqtisodiy asosnoma hamda texnik topshiriq ishlab chiqiladi.

Prezidentimizning 2019-yil 17-iyundagi farmoni bilan tasdiqlangan konsepsiya doirasida qishloq xo‘jaligida foydalanishga kiritiladigan erlarni geoaxborot tizimi orqali monitoring qilish maqsadida maxsus onlayn platforma prototipi yaratildi. Agrosanoat majmuiga tegishli barcha vazirlik va idoralar axborot tizimlarining integratsiyasini ta‘minlaydigan yagona dastur ham ishlab chiqiladi. Ayni paytda esa “Aqlli qishloq xo‘jaligi” davlat dasturi loyihasi ustida ish olib borilmoqda.

Qishloq xo‘jaligining takomillashgan tizimlarida turli “aqlli texnologiyalar” (smart-sensorlar) ekin va atrof-muhit sharoitidan kelib chiqilgan holda o‘rnatiladi. Masalan, zararkunandalar va kasalliklarni oldindan aniqlovchi, iqlim nazorati — haroratni, namlikni, karbon dioksid darajasini o‘lchovchi vositalar, ozuqa moddalari bilan ta‘minlash va sug‘orish asboblari kabilar shular jumlasidan. Ularning qo‘llanilishi hosildorlikni kamida 30 foiz oshirishni kafolatlaydi. Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularni sotish zanjirlarida ham takomillashgan tizimlar joriy etiladi va pirovardida katta hajmdagi elektron ma‘lumotlarni yig‘ish imkoniyati yaratiladi. Ularni saqlash va tahlil qilish natijasida esa suv, er va boshqa chegaralangan resurslardan samarali foydalanish, oziq-ovqat sifati va xavfsizligini ta‘minlash mumkin.

Elektron tizimning qulayligi shundaki, hosil yig‘ilganidan so‘ng ham uning faoliyati mahsulotlarni qayta ishlash, qadoqlash, tozalash, navga ajratish, etkazish va

boshqa qo‘shimcha qiymat zanjirlarini yaratish kabi yo‘nalishlarda davom etadi. Qisqasi, “Aqlli qishloq xo‘jaligi” texnologiyalari yuqori hosildorlik va sifatga erishish, suv sarfi hamda mahsulot tannarxini kamaytirish, hosilni rejalashtirish va prognozlash kabi yo‘nalishlarda muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, smart-texnologiyalar joriy etilishi yosh avlod vakillarida bu tarmoqqa qiziqish uyg‘otadi. Bu esa sohada yangi ish o‘rinlari ko‘payishiga yo‘l ochadi. Ammo raqamli qishloq xo‘jaligini tashkil etish va undan foydalanish bilan bog‘liq masala ham borki, u sohani chuqur biladigan hamda zamonaviy texnik-texnologik bilimlarga ega malakali kadrlar talabini yuzaga keltiradi. Eng avvalo, qishloq xo‘jaligida yangi kasb egalari - dasturchi, ITo (asboblarni interneti) muhandisi, IT-mutaxassislar zarur bo‘ladi.

Prezidentimizning 2019-yil 19-avgustdagi “Toshkent davlat agrar universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, Toshkent davlat agrar universiteti va uning Nukus, Andijon, Termiz filiallari tuzilmasini va ustavlari yangidan tasdiqlanib, qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalar, agroturizm, qishloq xo‘jaligida kooperativ boshqaruv, gidrobiologiya, ixtiologiya, asalarichilik, veterinariya meditsinasi (hayvonot turlari bo‘yicha), zootsiyeneriya (qoramolchilik), qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti, tuproq bonitirovkasi va er resurslaridan foydalanish, agrosanoatda texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va texnik servis, agrobiznes va marketing yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov U.K. Oliy pedagogik ta‘lim tizimida umummehnat va kasbiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari: Dis. ...ped.fan.dokt. - T.: 2004. -314 b.

2. Xodjaboev A.R. Uchebno-metodicheskiy kompleks podgotovki uchiteley trudovogo obucheniya. Metod. rekom.- T.: UzNIPI, 1989. - 93 s.;

3. Rahimov B.X. Bo‘lajak o‘qituvchida kasbiy-madaniy munocabatlarning shakllanishi: Ped. fan. nomz. ... dikk. – T.: 2004. – 160 b.

4. Nishonaliev U.N. Formirovanie lichnosti uchitelya i trudovogoobucheniya. Problemy i prospektivy - T.: Fan, 1990 – 85-s.

5.Rashidov X.F. Teoretiko-metodologicheskie i spetsialno-pedagogicheskie osnovy razvitiya srednego spetsialnogo, professionalnogo obrazovaniya v Uzbekistane. Diss. ... dokt. ped.nauk. - T.: 2005. - 311 s;

6.Olimov Q.T. Maxsus fanlardan o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning nazariy-uslubiy asoslari: Dis. ... ped. fan. dokt. – T.: 2005. – 286 b

7.Otaboyeva Z.G'. O'smirlarda vatanparvarlik tarbiya jarayonida ulardagi ijtimoiy faollikni keltirib chiqaruvchi omil. Экономика и социум. 11 (78) 301-304-b.

8.Azimova Z.E. Otaboyeva Z.G. Talabalarda klasterli metodi orqali hamkorlik madaniyatini rivojlantirish. Экономика и социум, 2024 4-2 (119) 66-69-b

9. Ziyoda Azimova Ergashevna, Zulfiya Otaboyeva G'ofurovna. Oliy ta'lim tizimida talabalar jamoasini ijtimoiy pedagogik-psixologik xususiyatlarini rivojlantirish: oliy ta'lim tizimida talabalar jamoasini ijtimoiy pedagogik-psixologik. 210-214-b

10. Otaboeva Zulfiya. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. Jurnal. Ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida hamkorlikni tashkil etish. 2023/5/26. 55-57-b

11.Зульфия Гофуровна Отабоева. Изучение теоретических аспектов кластеризации образовательного процесса и эффективного повышения практической деятельности. 2023. Conferencea. 81-83-б

12. Зульфия Гафуровна Отабоева. Взаимодействие преподавателей и студентов в учебном процессе Журнал. Universum: психология и образование.2021. 26-27-б

13.З.Ф Отабоева. 2021. Шахс ривожланиши хакида тушунча. Журнал.Экономика и социум. 4-2 (83). 297-300-с

14. Otaboeva Z.G. Organizing pedagogical experimental work for the development of a culture of cooperation in the student community of higher education institutions. Экономика и социум. 2023. 285-288-b